
1 oktyabr -O'qituvchi va murabbiylar kuni bayram tadbirlari Toshloq tumanida ham keng nishonlanmoqda. Bayram tadbirlarida sharaflı kasb egalariga, faxriy ustozlarga ehtiromlar ko'rsatilmoqda.

Ana shunday fayzli bayram tadbirlardan biri tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tashabbusi bilan soha xodimlari, MTT direktorlari va faxriy ustozlar ishtirokida bo'lib o'tdi. Bayram tadbirida so'zga chiqqan tuman hokimi A.Djurabayev o'zining ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini yosh avlod tarbiyasiga baxsh etadigan ustozlar mehnati, jasorati har qanday yuksak baholarga munosib ekanligini ta'kidlab o'tdi. Bayram munosabati bilan tizimning barcha fidoiylariga o'zining samimiy tilaklarini izhor etdi.

Bayram tantanasi konsertlar, qutlovlar bilan yanada serfayz va betakror, unutilmas va quvonchlarga boy tarzda nishonlandi.

2022-09-30 10:32:28